



Go'zal va betakrorimsan,
muqaddas Vatanim, jonim senga
fido, O'zbekistonim!

Tong yulduzi

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N:28 (67089)

2016-yil
11-iyul

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092

«YASHIL CHIROQ - 2016» - NAVOIYDA



O'tkamizda go'zal yoz fasli! Ayni kunlarda bolajonlar turli tadbirlarda faol ishtirok etib, har bir kunning maroqli o'tkazishyapti. Ana shunday tadbirlardan biri «Yashil chiroq» musobaqasidir.

Yaqinda g'olib jamoalar Respublika - «Yashil chiroq» bellashuvida qatnashish maqsadida Navoiy viloyatining Navbahor tumanida joylashgan «Shaboda» nomli bolalar oromgohiga to'planishdi.

(7-bet)

BOLAJONLARGA AJOYIB TUHFA



Farg'ona viloyati, Qo'qon shahridagi 12-Mehribonlik uyiga qarashli «Nafosat» oromgohida zamon talablariga mos basketbol, voleybol maydonchalari qurilib, foydalanishga topshirildi.

(4-bet)

VODIYGA PO'LAT IZ TUSHDI

Vodiy larni yayov kezkanda,
Bir ajib his bor edi manda.
Chappar urib gullagan bog'in,
O'par edim Vatan tuprog'in.



Ushbu misralarni har gal o'qiganimda yurtimiz, ayniqsa, Farg'ona vodiysining go'zal va betakror tabiati, husn-u tarovati ko'z o'ngimda butun bo'y-basti bilan namoyon bo'ladi.

Quvonarlisi, mustaqillik she'rdagi tilga olingan qutlug' go'shaga yanada chiroy va go'zallik baxsh etdi. Ayniqsa, yaqinda Angren - Pop elektrlashtirilgan temir yo'lining muddatidan avval - 32 oyda qurib bitkazilishi, vodiya ahli uchun eng ulug', eng aziz bayram - Istiqlolimizning 25 yillik to'yiga munosib sovg'a, deyish mumkin. Endi yurtimiz ahli shoir aytganiday, Farg'ona vodiysining betakror go'zalligidan yayov emas, balki poyezdda yurib, chinakamiga zavqlanish imkoniga ega bo'ldi.

(Davomi 2-betda)

Bizga maktub yo'llabsiz...

A'LOCHI DUGONAM

Yaqin dugonam Shahzodabonu Karimova ko'p kitob o'qiydi, she'r va hikoyalar yozadi.


U ona tili va o'qish fanlaridan o'tkazilgan «Bilimlar bellashuvi»ning shahar bosqichida 1-o'rinni egalladi. Shahzodabonu hech kimdan yordamini ayamaydi.

Men dugonam bilan faxrlanam. Uning yutuqlarga erishishida ustozimiz Gulnoza opa Bo'ronovanning xizmatlari katta. Shunday ustozimiz borligidan xursandmiz.

Robiya SHUKUROVA,
poytaxtimizning Yakkasaroy tumanidagi
144-umumta'lim maktabi o'quvchisi

FAYZULLO MUHANDIS BO'LMOQCHI

Fayzullo Turg'unboyev Namangan viloyatining Norin tumanidagi 35-umumta'lim maktabi o'quvchisi. U hamma fanlarni yaxshi ko'rsa-da, fizika, matematika va informatikaga mehri bo'lakcha.



Mana bir necha yildirki, matematika to'garigida ustoz Alisher Turg'unovdan misol va masalalarni tez yechish yo'lini o'rganib oldi. U hatto tengdoshlari uchun ellikka yaqin matematik testlarni ham tuzishga ulgurd. Tinib-tinchimas Fayzullo avtomobillarga bo'lgan qiziqishi sabab, informatikadan mustaqil dasturlashni o'zlashtirish uchun qo'shimcha

mash'g'ulotlarga qatnamoqda. Bugungi kunda ishlab chiqarish korxonalarining barchasi kompyuterlashtirilgan tizimda faoliyat olib borishini yaxshi bilgan o'quvchi dasturlashni puxta o'zlashtirmoqda. Chunki u kelajakda texnik-mexanik kasbini egallab, Asakadagi avtomobil ishlab chiqaradigan zavodda muhandis bo'lib ishlamoqchi.

Undagi aniq fanlarga bo'lgan iqtidor otasi umumtexnik fanlar va fizika yo'nalishi bo'yicha pedagog Habibullo akadan o'tgan bo'lsa, ajabmas.

Nozima JAVHAROVA,
Namangan viloyati, Norin tumani

(Davomi. Boshi 1-betda)



Shu o'rinda aytish kerakki, dengiz sathidan 2 ming 200 metr balandlikda joylashgan Qamchiq dovoni orqali o'tgan Angren – Pop elektrlashtirilgan temir yo'li mamlakatimiz hayotida beqiyos o'rin tutadi. Eng avvalo, bu ulkan inshoot Farg'ona vodiysi viloyatlari va yurtimizning boshqa hududlari o'rtasida temir yo'l orqali yuk va yo'lovchi tashish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, Xitoy – Markaziy Osiyo – Yevropa yangi

xalqaro tranzit temir yo'l koridorining eng muhim bo'g'ini bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 18-iyundagi «Angren – Pop elektrlashtirilgan temir yo'li liniyasi qurilishini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori asosida bunyod etilgan ushbu yo'lga «China Railway Tunnel Group» kompaniyasining mingdan ziyod ishchi mutaxassislari, uch mingdan ortiq temiryo'lchilari-miz, uch yuz nafar elektromontajchi o'zlarining munosib hissalarini qo'shishdi. Uzunligi 123,1 kilometr bo'lgan ushbu temir yo'lning Qamchiq dovonidan o'tgan qismida 19,2 kilometrlik tunnel ochildi. Shuningdek, 285 ta sun'iy inshoot va suv o'tkazish quvurlari, umumiy uzunligi 2,1 kilometr, o'rtacha balandligi 25 metrlik 15 ta temir yo'l ko'prigi va 6 ta yo'l o'tkazgich barpo etildi. 4 ta stansiya, 4 ta

MUSTAQILLIK BERGAN IMKONIYATLAR

Shu kunlarda xalqimiz Vatanimizning ko'p asrlik shonli tarixida mutlaqo yangi davlat, yangi jamiyat barpo etish yo'lini ochib bergan tarixiy voqea – O'zbekiston Respublikasining 25 yilligini munosib kutib olish va tantanali ravishda nishonlash uchun har tomonlama qizg'in tayyorgarlik ko'rmoqda.



Eng ulug', eng aziz bayramimizning bu yilgi bosh g'oyasi «Go'zal, betakrorimsan, muqaddas Vatanim, jonim senga fido, O'zbekistonim!» deb belgilangani har bir vatandoshimiz qalbidagi o'zgacha aks sado bermoqda.

Bugungi tinch, osoyishta turmushimiz, dorilamon zamonda yashayotganimiz nafaqat o'zimiz, balki butun dunyodagi tinchliksevar xalqlar uchun namuna bo'lmoqda.

Yaqinda butun respublika bo'ylab «Biz buyuk yurt farzandlarimiz» shiori ostidagi yoshlar festivali o'tkazildi. Shuningdek, «Kim edig-u kim bo'ldik?» degan savolga joylarda o'tkazilgan tadbirlarda ancha mazmunli, jo'yali javoblar bo'ldi. Respublikamiz miqyosidagi taniqli olim, san'atkorlar, adiblar, fidokorona mehnati bilan shuhrat qozongan turli kasb egalari oldingi davr bilan hozirgi o'tayotgan kunimizni jonli misollar bilan qiyoslab, ta'sirli qilib gapirib berdilar.

Ana shunday uchrashuvlardan birida 7-sinf o'quvchisi «Yurtimizning buyukligini nimadan bilsak bo'ladi?» deb so'rab qoldi.

Shunda bolajonlarning sevimli shoiri Anvar Obidjon o'z bolaligi haqida so'zlab, yomg'ir yog'sa, tomidan chakka o'tib turadigan tuproqtom maktablarda sinif partalarida o'tirib o'qigani haqida ta'sirli qilib so'zlab berdi.

Keyin adibimiz yosh avlodni jahon talablariga mos uskunalar bilan jihozlangan sinf xonalari, sport maydonchalari, kompyuterlashgan xonalari bor shinam, chiroyli maktablarda o'qiyotgani haqida jonli misollar keltirib o'tdi.

Har birimizning muqaddas vazifalarimizdan biri, jondan aziz mustaqilligimizni asrab-avaylash, uning qadriga yetishdir. Bu borada biz – o'sha og'ir mustabidlik davrini ko'rib, azob-u uqubatlarini boshidan kechirgan va dorilamon zamonda yashab, bag'riga shamol tekkan yoshi kattalar – yosh avlodga mustaqillikning mazmuni, ahamiyati haqida ko'proq tushunchalar berishimiz kerak. Toki, siz mustaqillikka shunchaki erishilmagani, bunday ulug' ne'matga yetishish, undan bahramand bo'lish millatdoshlarimizning fidoiyligi evaziga qo'lga kiritilganini bilib, his qiling, qadriga yeting.

Yusufjon HAMDAMOV,
O'zMU jurnalistika fakultetining dotsenti

VODIYGA PO'LAT IZ TUSHDI

razyezd va 2 ta vokzal qurib bitkazildi. Dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, mazkur temir yo'l orqali shu yilning o'zidayoq 600 ming yo'lovchiga xizmat ko'rsatish mumkin.

– Jizzax viloyatida yashovchi qarindoshimiznikiga tez-tez mehmonga boramiz. Avvallari, u yerga safar qilsak, dastlab poytaxtga, so'ngra u yerdan boshqa avtomobilga chiqishga to'g'ri kelardi. Yangi temir yo'lning ishga tushirishi ana shu sarsongarchilikka barham beradi, – deydi Andijon viloyati, Qo'rg'ontepa tumanidagi 25-umumta'lim maktabi o'qituvchisi Dildora Fozilova.


Angren – Pop elektrlashtirilgan temir yo'li liniyasi qurilishi loyihasi murakkabligi bo'yicha dunyo miqyosida birinchi sakkiztalikdan o'rin olgan.

Yo'lning Qamchiq dovonidan o'tgan qismida ochilgan 19,2 kilometrlik tunnel uzunligi bo'yicha dunyo miqyosida birinchi 13 talikka kiradi.

Bir so'z bilan aytganda, ushbu be-takror inshoot xalqimizning bunyodkorlik sohasida qo'lga kiritgan ulkan yutug'i bo'lish bilan birga, kelajakda mamlakatimizning iqtisodiy salohiyatini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Sa'dullo TURSINOV

«BOLALIK KUNLARIMDA...»



Beg'uborlik olamining bekasi

Bolalik! U haqida o'ylasan, entikib ketaman. Bobojoni, buvijonining issiq bag'rida o'tirgan qizaloq ko'z oldimga keladi. U qizaloqning o'zgacha dunyosi, hech kimnikiga o'xshamagan xayollari bor edi. U turli tasavvurlar bilan yashar, ana shulardan kelib chiqib nimalardir qilar edi. Biroz ulg'aygach, o'zining qilgan ishlaridan mazza qilib kulardi. Masalan, uning uch yoshligida tushgan birorta ham surati yo'q. Nega, deysizmi? Unda surat borasida odamni dazmollab, keyin qog'ozga qoqib qo'yishadi, degan tushuncha bo'lgan. Shuning uchun ham uylariga suratkash kelganida jon holatda qochib, berkinib olgan ekan...

Har bir inson xotiralar bilan yashaydi. Ularning eng qadrlisi, maroqlisi ota-ona bag'rida kechgan betashvish, betakror, beg'ubor kunlari bilan bog'liq bolalik xotiralari bo'lsa kerak. Taniqli bolalar adiblarining o'z bolalıkları haqidagi hikoyalari esa yanada qiziqarli.

Sevimli shoiramiz Kavsar Turdiyevaning eng baxtiyor, jo'shqin damlari - bolaligi bilan bog'liq xotiralarini o'qib, fikrimizga qo'shilasiz, degan umiddamiz.

USTOZLAR SABOG'I

Biz Abdusaid Ko'chimov, Temur Ubaydullo, Rauf Tolib, Sulton Jabbor, Hamza Imonberdiyev kabi ustozlardan saboq olardik. To'garagimizga shoir va jurnalist (Olloh rahmatiga olgan bo'lsin) Zafar Komilov, adabiyotshunos olim Shahobiddin Odilov va hozirgi kunda taniqli tilshunos olim, filologiya fanlari doktori Durdona Xudoyberganova va boshqalar ham qatnashishardi. Mash'ulotlarimiz juda qiziqarli tarzda o'tardi.

Gazetada she'rlarimiz yo maqolalarimiz chiqsa, bizga ko'plab xatlar kelardi.

Ilk bor «Mushtum» jurnalida chop etilgan «Ukam bokschi» nomli she'rim uchun qalam haqi olgan kunim sira yodimdan chiqmaydi. Quvonchimni ichimga sig'dirolmay bor pulimga buvim, oyim va ukalarim uchun kichkina bo'lsa ham sovg'alar sotib olgandim.

Validamning «Odam qilgan ishni odam qiladi», «Har doim birinchi darajali ish bilan ikkinchi darajali ishni farqlay bilish kerak», «Ko'z qo'rqqoq, qo'l botir», degan dono o'g'itlari adabiyot olamiga dadil qadamlar bilan kirib kelishimda, maqsad yo'lidagi intilishlarimda yo'lchi yulduzdek yo'llarimni yoritib turgan bo'lsa, kuyunchaklik bilan aytgan: «Mayli, bitta ko'ylakni kamroq kiyaylik, tilla taqinchoq taqmaylik, ammo farzandlarimizning o'qishga va hunar o'rganishga bo'lgan qiziqishini rivojlantirish uchun mablag'imizni ayamaylik», «Ona uchun eng asosiy vazifa - farzand tarbiyasi» kabi purma'no hikmatlari farzandlarim tarbiyasida asqotdi. Bugungi kunda nabiralarimni ham onamning hayot sinovlaridan o'tgan durdona fikrlari asosida tarbiyalayapman...

O'sha qizaloq men edim.

Esimni tanibmanki, yaqinlarim, ayniqsa, onamning mehribonligi, jonkuyarligini his qilib yashaganman. Ijodkorlikka havasimni maqsadga aylantirgan ham onam bo'lganlar.

Yodimda bor, 5-6 yoshli qizaloq edim. O'shanda ular ilmiy ish yozayotgandilar. Men esa yonlarida o'tirib ertak to'qirdim.

KAVSARNING ILK KITABI

Bir kuni qo'llariga igna-ip olib bir necha rasm daftar varaqlarini kesib, kitobcha shaklida tikdilar. Menga rasm uchun joy qoldirib, aytgan ertaklarimni yozib berdilar. «Kitobcha»ning muqovasiga esa «Kavsarning birinchi kitobi», deb yozib qo'ydilar. Shunday qilib, onam ilk kitobchamning «noshiri»ga aylandilar. Bundan ruhlanib, men bir-ikki oy ichida bu kabi «kitobcha»lardan o'ntachasini yozgandim. Onam ilk ijod namunalarimni qo'lbola kitobchalarga yozganlarida, qizim ulg'aygach yozuvchi bo'ladi, deya niyat qilgan bo'lsalar, ajab emas. Otam - adabiyotshunos olim Sherali Turdiyev, onam - tilshunos olim Gulshod Muhammadjonova go'dakligimdan oq qalbimda kitobga mehr uyg'otishdi. O'zbek va jahon bolalar adabiyotining eng go'zal namunalari bilan tanishtirishdi. She'riyatga, ijodga moyilligimni ilg'agach, qiziqishimni qo'llab-quvvatlashdi, kamchiliklarimni ko'nglimga og'ir botmaydigan tarzda tushuntirishdi.

Bir kuni ko'rpa qavib o'tirgan onamning yonlariga cho'kkalab: «Menga ham tikishni o'rgating», dedim. «Yo'q, sen tikma, sen yoz!» Shunday yozki, hamma zavq bilan o'qisin! Har kuni hech bo'lmasa to'rt qator she'ringni o'qib ber», dedilar mehr bilan sochlarimni silab. Men onamning gaplarini yerda qoldirmaslik uchun har kuni she'r yozishga harakat qilardim. Yoza olmagan paytlarim tarjima qilardim. Ertalab onamga mashqlarimdan o'qib berganimda, rosa xursand

bo'lardilar. Endi bilsam, onam mo-hir pedagog ekanlar. Mening she'r yozish qobiliyatimni ko'nikmaga aylantiribdilar.

SHE'RIMNING BIRINCHI O'QUVCHISI

Onam har bir she'rimning eng birinchi o'quvchisi, tanqidchisi va baholovchisi edilar. Hech qachon keskin fikrlar aytib, dilimni og'ritmasdilar. Avval yaxshi tomonlarini maqtab, so'ngra: «She'ringni bir-ikki kunga olib qo'y, kamchiliklari o'zingga aniq ko'rinadi, tuza-tasan», derdilar. Darhaqiqat, she'rimni bir-ikki kundani so'ng o'qigach, o'zimga yoqmas, kamchiliklarini tuzatish uchun ba'zan qayta



Inson ulg'aygan muhit uning kelgusi hayotida ham aks etadi.

Ota-onasining qo'lida kitob ko'rib ulg'aygani Kavsar opa Turdiyevaning murg'ak qalbida adabiyotga, she'riyatga mehr uyg'otgan, ularning dono maslahatlari ajoyib bolalar shoiri bo'lib yetishishiga turtki bo'lgan bo'lsa, ne ajab?! Men Kavsar opa ijodini bolalar hayotining ko'zgisiga, o'zini esa beg'uborlik olamining bekasiga qiyoslagim keladi. Sevimli shoiramizdan yana ko'plab quvnoq she'rlar, tarjimalar kutib qolamiz.

Feruz JALILOVA

yozar edim. Agar matbuotda she'rim chiqsa, onam butun shaharni aylanib bo'lsa ham, shu gazeta yoki jurnalni topib kelardilar.

Keyinchalik bolalar nashrlari qoshidagi to'garaklarga qatnay boshladim.

(Davomi. Boshi 1-betda)

BOLAJONLARGA ajoyib tuhfa

Yozgi ta'til mavsumida o'g'il-qizlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish yurtimizda yoshlarga ta'lim-tarbiya berish borasida olib borilayotgan islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biridir. Davlatimiz tomonidan ko'rsatilayotgan bunday g'amxo'rlik ertamiz egalarini sog'lom tafakkurli etib kamol toptirish, ular qalbi va ongi shuuriga ona Vatanga muhabbat, tariximizga hurmat-ehтиrom tuyg'ularini chuqur singdirishda beqiyos ahamiyatga ega.

Qo'qon shahar 12-Mehribonlik «Yosh tabiatshunos» to'garaklarida uyiga qarashli «Nafosat» oromgohi-da o'g'il-qizlar maroqli hordiq chiqa-



«Yosh tabiatshunos» to'garaklarida zamon talablari darajasida basketbol hamda voleybol maydoni qurilib, tarbiyalanuvchilarga bayram sovg'asi sifatida tuhfa etildi.

Xurshida SULAYMONOVA

rishmoqda. «Pazandachilik sirlari», «Badiiy havaskorlik», «Kompyuter savodxonligi», «Mohir qo'llar», «Ingliz tilini o'rganamiz» va «Barkamol avlod» bolalar markazi hamkorligida «Tasviriy san'at», «Munchoqli bezak», «Gulchilik», «Boshlang'ich texnika modeli» va



Aziz bolajonlar!

Bugun siz bilan tabiat qo'ynida joylashgan so'lim oromgohlardan biriga sayohat qilamiz. Ko'plab oromgohlarga makon bo'lgan Sijjak qishlog'i Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanida joylashgan.

SIJJAK OROMGOHLARIDAN BIRIDA...

Qishloqning kiraverishida joylashgan «Kamalak» oromgohi bilan Sijjakning quyi qismidagi «Yangi avlod» sog'lomlashtirish maskanida Bo'ka tumanidagi 15-Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari miriqib hordiq chiqarishmoqda. Jumladan, «Yangi avlod»da 4-7 yoshdagi bolajonlar Abdurasul Akmalov rahbarligida uch guruhda dam olishmoqda. Jajji shirintoylarning yozgi ta'tili maroqli kechishida Muhammad-sodiq Turatov yetakchiligida Qosima Po'latova, Nodira Jo'rayeva, Muhayyo Tojiyoqubova kabi tarbiyachilar as-toydil harakat qilishmoqda.

«Yuragim uzra nur sochar quyosh» rasmlar tanlovida bolalar osoyishta ona yurt manzaralari, beg'ubor bolalik, sog'lom ona va bola mavzularida o'z qarashlarini ifoda etdilar. Rango-rang ijodiy ishlar orasida 3-guruh tarbiyalanuvchisi Shahzod Hamidovning «Chorvoq manzarasi» rasmi yuksak



o'rinlarga loyiq topildi. «Milliy xalq o'yinlari» ko'rgazmasi tashkil etiladigan kuni bolajonlar «Arqon tortish», «Kurash», «Oq terakmi, ko'k terak?» hamda «Quvlashmachoq» o'yinlarini miriqib o'ynashdi. O'z qo'llari bilan yasagan samolyot maketlarini uchirishdi, qog'oz qirqimlaridan yasalgan anvoyi gullar va bayroqchalar sahnani bezadi.

Ayniqsa, Shahzod Islombekov yaratgan oromgoh logotipi barchaning e'tiborini tortdi.

Shokir Musurmonov boshchiligidagi pedagog-murabbiylardan Ziyoda Bobotoyeva, Ozoda Karimova, Dilfuza Abdurahimova, Davron Komilov, Baxtiyor Toymuhammedov tadbirlarning qiziqarli o'tishiga bosh-qosh. Begzod va Sharifa Manopova singari tibbiyot mutaxassislari bolajonlarning salomatliklarini tun-u kun nazorat qilishdan charchamaydi.

baholandi. Umida Boltaboyevaning «Kamalak va mening uyim», Jami-la Poni-filovaning «Tabiat qo'ynida» rasmlari faxrli

Poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 274-umumta'lim maktabida tashkil etilgan «Yulduzcha» sog'lomlashtirish oromgohi bolalarning sevimli maskaniga aylangan.

BUVIJONLAR O'GITI

deb nomlangan yangi to'garak tashkil etilibdi. Unda mahalladagi nuroniy buvijonlar taklif etilib, ular o'zlarining bolalik yillari haqida hikoya qilib berishar ekan. Tabarruk onaxonlarning suhbatidan bahramand bo'layotgan o'quvchilar bugungi tinch va dorilamon kunlarning qadriga yetish kerakligini chuqur his etmoqdalar.



— Sog'lomlashtirish maskanimizda 4 mavsumda 560 nafar o'quvchining dam olishi rejalashtirilgan, — deydi biz bilan suhbatda oromgoh rahbari Gulnora Ibragimova. — Shu kecha-kunduzda hordiq chiqarayotgan 1-6-sinf o'quvchilaridan 140 nafari 16 ta fan va sport to'garaklariga qatnashmoqdalar.

Oromgohda turli ma'rifiy-ma'naviy tadbirlar, ko'rik-tanlovlar, shoir-yozuvchilar, san'atkorlar bilan uchrashuvlar o'tkazish yaxshi an'anaga aylangan. Yaqinda bu yerda «Barkamol yoshlar — ko'p millatli O'zbekiston kelajagi» mavzusida tadbir bo'lib o'tdi. Mehmonlar safida buvijonlar qatori taniqli shoir va adib Iskandar Rahmon va Respublika Baynalmilal markazi vakillari ham borligi quvonarlidir.

Bu yerdagi eng faol, bilimdon o'quvchilar haqida gap ketganida, ko'pchilik bir ovozdan «Qaldirg'och» guruhidagi 4-sinf o'quvchisi Zulfiya Sayfullayevaning nomini tilga oldi. Sportchi Sarvinoz Qo'chqorova esa taekvando bo'yicha shahar birinчилиgida g'olib bo'lib, Rossiyaning Sochi shahrida o'tkaziladigan musobaqaga yo'llanmani qo'lga kiritibdi. Otabek Abdurahmonov oromgohlararo o'tkazilgan futbol musobaqalarida eng mohir to'purar nomiga sazovor bo'libdi.

Nurbek QIDIRALIYEV

Dilorom HOTAMOVA

For vocabulary base

WHO IS YOUR FAVOURITE WRITER?
(Sevimli yozuvchingiz kim?)

I am fond of reading.

– Men kitob o'qishni yoqtiraman.

Are you fond of reading?

– Kitob o'qishga qiziqasizmi?

What sort of books do you like?

– Qanday kitoblarni o'qishni yoqtirasiz?

I enjoy detective books.

– Menga detektiv asarlar yoqadi.

I enjoy poems.

– Menga she'rilar yoqadi.

I prefer fairy tales.

– Men ertaklarni yaxshi ko'raman.

I prefer adventure novels.

– Menga sarguzasht asarlar yoqadi.

Who is your favourite writer? – Sevimli yozuvchingiz kim?

My favourite writer is Muhammad Yusuf.

– Mening sevimli yozuvchim Muhammad Yusuf.

Do you like this book? – Sizga bu kitob yoqdimi?

It's interesting. – Qiziqarli.

It's boring. – Zerikarli.



Kumush TURG'UNOVA

GROUP THE WORDS
(So'zlarni guruhlang)

Write the following words under the correct heading (five words under each).

Health, drug store, flower shop, hairdresser, ticket, carpenter, physics, security guard, barber, furniture store, art, English, boarding pass, cashier, clothing store, geometry, butcher, waiting area, gas station, baggage.

Places

Occupation

School subjects

The airport

DO YOU KNOW THIS?
(Bilasizmi?)

Australia was the last, fifth, continent to be discovered. There are animals and plants in Australia which you'll find nowhere else.

Emu (emu) is a large Australian bird. Emu



can't fly but it can run faster than a horse.

Trees in Australia are also very unusual. One of them is called the Black Boy.


The native people of Australia are called aborigines. Their way of living is that of the Old Stone Age.

Prepared by
Dinora SHAKIROVA

ANTONYMS CROSSWORD


Write opposite meaning to these words:

1. Small. 2. Safe. 3. Fat. 4. Fast. 5. Dirty. 6. Beautiful. 7. Less



Azizabonu HAYDAROVA,
the pupil of school №12 in Qiziltepa district, Navoiy region

PICTURE GAME



Zulfizar XOLMURODOVA,
the pupil of school №71 in Qiziriq district, Surkhandarya region

VERBS AND NOUNS

Match the verbs to the nouns.

VERBS

- 1) boil
- 2) dial
- 3) dig
- 4) feed
- 5) pour
- 6) record
- 7) rent
- 8) tear
- 9) tidy
- 10) watch

NOUNS

- a) a hole **1d**
- b) a TV programme ...
- c) a video ...
- d) some water ...
- e) the coffee ...
- f) the dog ...
- g) the number ...
- h) the plants ...
- i) the room ...
- j) your jeans ...

Dono AHMEDOVA

(Davomi. Boshi o'tgan sonda)

**Xudoyberdi TO'XTABOYEV,
O'zbekiston xalq yozuvchisi
MAKTABDA ATALA
ICHGAN KUNIMIZ**

O'sha kuni 1943-yilning 13-dekabr edi. Nega buni aniq eslaysan, desangiz, sababini keyinroq aytaman. Endi maktabimiz haqida gapirib beray. Bilim maskanimizda 2 ta sinf bor edi. Ayvonchadan chap tomondagisida yig'loq 1-, qiqirlab kuladigan 2-sinfning bolalari o'qiydi, ayvonning o'ng tarafida esa tez-tez janjallashib, mushtlashib turadigan 3-4-sinf bolalari o'qiydi. Mana shu 2 ta sinfga urushdan nogiron bo'lib qaytgan Ermatov domla rahbarlik qiladi, Mehmonali domla 1-2-sinflarni o'qitadi. U juda mehribon. Suv toshganda bolalar soydan o'tolmaymiz, desa, ataylab borib, o'tkazib qo'yadi.

Bizni o'qitadigan Ermatov domla esa juda qattiqqo'l. Enajonim «Ermatov domla urushda bo'lgan. Shuning uchun uni ranjitmanglar», deb o'rgatadi. Yana bir narsa aytaymi? Maktabimizda har kuni bo'lmasa ham 3-4 kunda xayriya oshi bo'ladi. Yaxshi odamlar non yopib jo'natadi. Undan ham yaxshi odamlar qaynatib, oq jo'xori jo'natadi.

O'sha kunlari zog'ora non keladimi, piyoz solingan qotirma nonmi, chala pishgan shavla jo'natishadimi, bizga chinakam bayram bo'ladi. Dars oldidan Ermatov domla 3-4-sinf o'quvchilarini, ya'ni sinfimizning bolalarini hovliga to'plab, asta-sekin «darsni» boshlab yuboradi. Hech kimning ismini aytmaydi, faqat familiyasini aytib chaqiradi, xolos. Ehtimol, ismimizni esidan chiqarib qo'yar, shuning uchun ham faqat familiyamizni aytib chaqirsa kerak.

– Madimarov! – deb qattiq bir ohangda chaqirdi.

– Labbay, domla, – deb javob berdi Akrom.

Qisqagina savol-javob ham boshlanib ketdi.

– Ayt, bugun qanaqa kun?

– Bilmayman, domla.

– Odilov... Bugun qanaqa kun?

– Esimdan chiqib qolibdi.

– To'xtaboyev.

– Labbay, domla.

– Bugun qanaqa kun, qanaqa sana.

– Bugun 1943-yil 13-dekabr, chorshanba.

– Oshpaz opasi. Eshityapsanmi, bu bolaning xotirasi yaxshi. Atala taqsimlayotganingda, bir cho'mich ortiq berasan.

– O'tgan safar daftar olganlar qo'lini ko'tarsin, – deb buyruq berdi-da, keyin sanashga tushib ketdi Ermatov. – Bir, ikki, uch... o'ttiz olti, o'ttiz sakkiz, yaxshi, yaxshi. Rahimova, sen nega qo'l ko'tarmayapsan?

– Domlajon, daftarim yo'q.

– Olgan eding-ku, nega yo'q bo'ladi?

– O'tinimiz ho'l ekan, yoqishga tutantiriq topolmay, o'sha daftarini yirtib yoqmoqchi bo'luvdim, bilmay qolib hammasini yoqib yuboribman. Oyi-jonim urdi, ikki martalab urdi.

– Yig'lama! – cho'loq oyog'ini yerga bir urib oldi domla. – U yoqda otang turursa, tupugi muzlab qoladigan sovuq o'lkalarda o'rmon kesib, okop kovlab, Giltgera qarshi kurashib yursa-yu, sen kap-katta qiz olov yoqolmasang. Yig'lama, qizim, yig'laganlarni yomon

ko'raman. Xo'sh, endi o'tgan safar rayondan olib kelgan perolarni taqsimlagan edim. Pero ololmaganlar bormi? Bo'lsa, qo'l ko'tarsin. Hakimov, sen aniq pero olgan eding-ku. Nega ko'tar-yapsan?

– Domla, kechiring. Men perolarni yutqazib qo'ydim.

– Yutqazib qo'ydim, nima deyapsan o'zi? Yo qimor o'ynayapsanlarmi?

– Yo'q, qimor emas, domla, kaf-timizning ichiga pero yashirib topgan yutadi, topmasa yong'oq beradi, deb

deydi. Men oldin qo'lga, keyin ko'ziga qarayman. Ko'zi sal qimirlab turgan qo'lga qarab-qarab qo'yadi. Lekin qarab qo'yotganini bildirmaslikka harakat qiladi. Qaysi qo'lida yashirganini, nima borligini uning ko'zidan bilaman. Qo'lini mahkam ushlayman.

– Bolalar, nima qilamiz endi, qamoqxonaga jo'natamizmi, aytinglar.

– Qamalmasin!

– Endi o'ynamaymiz.

– Mayli, yutib olgan mevalarimizni bermay qo'ya qolsin!

Bunday qarasam, Ikromning ko'zidan yosh oqib tushayap-

ti. Bechora o'rtog'im! Agar yutib olgan o'rik, yong'oqlarini ukalariga bergan bo'lsa-chi, otasini mening o'gay otamga o'xshatib harbiy batalonga olib ketgan-ku, axir hammalari och o'tirishib-di-ku...

– Suyarqulov, sen sinchkov, ko'zing o'tkir bola ekansan, bu yaxshi fazilat. Sening bu sinchkovliging o'g'irlarni ushlayshda, qalloblarni fosh qilishda juda qo'l keladi. Lekin bu «hunaringni» o'rtog'laringga ishlata ko'rma, agar yana shunday qilsang, qamalasan!

– Xo'p, domlajon, hecham ishlatmayman, – deb Ikrom ikki qo'li bilan ko'z yoshlarini artib oldi.

– O'g'illarim, qizlarim, – endi yumshoqqina gap boshladi Ermatov domla, – urushga ketgan akalarimgan, harbiy batalonda yurgan otalaringdan ketma-ket xatlar kelayapti. Yaqinda urush tugab, akalaring, otalaring ko'ksiga ordenlar taqib, yelkasidagi pogonlarini yaltiratib, sizlarga katta-katta sovg'alar olib kelishadi. Mana bitta xat kelgan. O'qib beraman: «Taman dvizeyasi» o'qchi polki komandirlaridan Tagob qishlog'ida yashayotganlarga, «Sizlarning farzandlaringiz, tagobliklar jang maydonida ajoyib qahramonliklar ko'rsatishyapti. Pulkova qishlog'ini nemis bosqinchilaridan ozod qilishda tagoblik yetti azamat chinakam jasarat ko'rsatdi. Sizlarga g'oliblik muborak bo'lsin.

Polk komandiri, gvardiya polkovnigi A.Leslov».

Ermatov domla xatni o'qib bo'lgach, hammamiz xursand bo'ldik. Bitta bola baland ovoz bilan atala pishib turgan qozon tomonga qarab «olg'a», deb baqirdi.

Barchamiz qozon osilgan tomonga qarab yugurdik.

(Davomi bor)

ti. Bechora o'rtog'im! Agar yutib olgan o'rik, yong'oqlarini ukalariga bergan bo'lsa-chi, otasini mening o'gay otamga o'xshatib harbiy batalonga olib ketgan-ku, axir hammalari och o'tirishib-di-ku...

– Xuddi shu paytda Ermatov domlarning yuzida tabassum jilvalandi. Xursandchilikka o'xshash bir gul ochilgan bo'ldi:

– Suyarqulov, sen sinchkov, ko'zing o'tkir bola ekansan, bu yaxshi fazilat. Sening bu sinchkovliging o'g'irlarni ushlayshda, qalloblarni fosh qilishda juda qo'l keladi. Lekin bu «hunaringni» o'rtog'laringga ishlata ko'rma, agar yana shunday qilsang, qamalasan!

– Xo'p, domlajon, hecham ishlatmayman, – deb Ikrom ikki qo'li bilan ko'z yoshlarini artib oldi.

– O'g'illarim, qizlarim, – endi yumshoqqina gap boshladi Ermatov domla, – urushga ketgan akalarimgan, harbiy batalonda yurgan otalaringdan ketma-ket xatlar kelayapti. Yaqinda urush tugab, akalaring, otalaring ko'ksiga ordenlar taqib, yelkasidagi pogonlarini yaltiratib, sizlarga katta-katta sovg'alar olib kelishadi. Mana bitta xat kelgan. O'qib beraman: «Taman dvizeyasi» o'qchi polki komandirlaridan Tagob qishlog'ida yashayotganlarga, «Sizlarning farzandlaringiz, tagobliklar jang maydonida ajoyib qahramonliklar ko'rsatishyapti. Pulkova qishlog'ini nemis bosqinchilaridan ozod qilishda tagoblik yetti azamat chinakam jasarat ko'rsatdi. Sizlarga g'oliblik muborak bo'lsin.

Polk komandiri, gvardiya polkovnigi A.Leslov».

Ermatov domla xatni o'qib bo'lgach, hammamiz xursand bo'ldik. Bitta bola baland ovoz bilan atala pishib turgan qozon tomonga qarab «olg'a», deb baqirdi.

Barchamiz qozon osilgan tomonga qarab yugurdik.

(Davomi bor)

ti. Bechora o'rtog'im! Agar yutib olgan o'rik, yong'oqlarini ukalariga bergan bo'lsa-chi, otasini mening o'gay otamga o'xshatib harbiy batalonga olib ketgan-ku, axir hammalari och o'tirishib-di-ku...

– Xuddi shu paytda Ermatov domlarning yuzida tabassum jilvalandi. Xursandchilikka o'xshash bir gul ochilgan bo'ldi:

– Suyarqulov, sen sinchkov, ko'zing o'tkir bola ekansan, bu yaxshi fazilat. Sening bu sinchkovliging o'g'irlarni ushlayshda, qalloblarni fosh qilishda juda qo'l keladi. Lekin bu «hunaringni» o'rtog'laringga ishlata ko'rma, agar yana shunday qilsang, qamalasan!

– Xo'p, domlajon, hecham ishlatmayman, – deb Ikrom ikki qo'li bilan ko'z yoshlarini artib oldi.

– O'g'illarim, qizlarim, – endi yumshoqqina gap boshladi Ermatov domla, – urushga ketgan akalarimgan, harbiy batalonda yurgan otalaringdan ketma-ket xatlar kelayapti. Yaqinda urush tugab, akalaring, otalaring ko'ksiga ordenlar taqib, yelkasidagi pogonlarini yaltiratib, sizlarga katta-katta sovg'alar olib kelishadi. Mana bitta xat kelgan. O'qib beraman: «Taman dvizeyasi» o'qchi polki komandirlaridan Tagob qishlog'ida yashayotganlarga, «Sizlarning farzandlaringiz, tagobliklar jang maydonida ajoyib qahramonliklar ko'rsatishyapti. Pulkova qishlog'ini nemis bosqinchilaridan ozod qilishda tagoblik yetti azamat chinakam jasarat ko'rsatdi. Sizlarga g'oliblik muborak bo'lsin.

Polk komandiri, gvardiya polkovnigi A.Leslov».

Ermatov domla xatni o'qib bo'lgach, hammamiz xursand bo'ldik. Bitta bola baland ovoz bilan atala pishib turgan qozon tomonga qarab «olg'a», deb baqirdi.

Barchamiz qozon osilgan tomonga qarab yugurdik.

(Davomi bor)

ti. Bechora o'rtog'im! Agar yutib olgan o'rik, yong'oqlarini ukalariga bergan bo'lsa-chi, otasini mening o'gay otamga o'xshatib harbiy batalonga olib ketgan-ku, axir hammalari och o'tirishib-di-ku...

– Xuddi shu paytda Ermatov domlarning yuzida tabassum jilvalandi. Xursandchilikka o'xshash bir gul ochilgan bo'ldi:

– Suyarqulov, sen sinchkov, ko'zing o'tkir bola ekansan, bu yaxshi fazilat. Sening bu sinchkovliging o'g'irlarni ushlayshda, qalloblarni fosh qilishda juda qo'l keladi. Lekin bu «hunaringni» o'rtog'laringga ishlata ko'rma, agar yana shunday qilsang, qamalasan!

– Xo'p, domlajon, hecham ishlatmayman, – deb Ikrom ikki qo'li bilan ko'z yoshlarini artib oldi.

– O'g'illarim, qizlarim, – endi yumshoqqina gap boshladi Ermatov domla, – urushga ketgan akalarimgan, harbiy batalonda yurgan otalaringdan ketma-ket xatlar kelayapti. Yaqinda urush tugab, akalaring, otalaring ko'ksiga ordenlar taqib, yelkasidagi pogonlarini yaltiratib, sizlarga katta-katta sovg'alar olib kelishadi. Mana bitta xat kelgan. O'qib beraman: «Taman dvizeyasi» o'qchi polki komandirlaridan Tagob qishlog'ida yashayotganlarga, «Sizlarning farzandlaringiz, tagobliklar jang maydonida ajoyib qahramonliklar ko'rsatishyapti. Pulkova qishlog'ini nemis bosqinchilaridan ozod qilishda tagoblik yetti azamat chinakam jasarat ko'rsatdi. Sizlarga g'oliblik muborak bo'lsin.

Polk komandiri, gvardiya polkovnigi A.Leslov».

Ermatov domla xatni o'qib bo'lgach, hammamiz xursand bo'ldik. Bitta bola baland ovoz bilan atala pishib turgan qozon tomonga qarab «olg'a», deb baqirdi.

Barchamiz qozon osilgan tomonga qarab yugurdik.

(Davomi bor)



**Husniddin SHARIPOV,
(1933 – 2015)
O'zbekiston xalq shoiri**

**QIZIM -
ILDIZIM**

Mening ikki qizim bor,
Hayotda ildizim bor.
Azizasi to'qqizda,
Ammo juda sho'x qiz-dal
Erta bilan turadi,
Bizga salom beradi.
So'ngra qitiqlab sekin,
Uyg'otadi singlisin.
Qiqirlab qolishadi,
Kelishib olishadi.
Maktabga ketar biri,
Bog'chaga yetar biri...
Maktabidan qaytganda,
«5» keltirar, albatta!
Ammo undan keyin-chi?
Oshib ketar sevinchi.
Uyni boshga ko'tarar...
Qayga qochsin kattalar?
Ota hayron, lol ona,
Qizlarga band bir xona –
Radiola kuylaydi,
Ikkala qiz o'ynaydi.
Barmoqlari qarsillab,
O'ynar qizim harsillab.
Ko'zlariga nur to'lib,
O'ynar qizim gul bo'lib.
O'ynayversin, yashasin,
Ikki yuz yil yashasin!
Tushudingiz ancha siz,
Zamiramiz – kenja qiz.
Zamiraning oltida,
Aqli kirib qoldi-da.
Onasining daftarin,
Varaqlaydi kamtarin.
Harflarni u taniydi...
Tanish harflar qaniydi?
– Ko'rdingizmi qizimni,
Qora qilmas yuzimni!
Shuning uchun qaytadan,
Do'stlarimga aytaman.
– Mening ikki qizim bor,
Hayotda ildizim bor.





JAJJI MALIKALARNING G'ALABALARI

Italiyaning Latina shahrida badiiy gimnastika bo'yicha o'tkazilgan xalqaro turnirda mamlakatimiz sportchi qizlari muvaffaqiyatli ishtirok etishdi.

Mazkur nufuzli turnirda Ispaniya, Kanada, Kipr, Misr, Rossiya, Qozog'iston kabi davlatlarning eng iqtidorli gimnastikachilari bilan raqobatlashgan sportchilarimiz 5 ta oltin, 2 ta kumush, 5 ta bronza medalni qo'lga kiritdi.

2009-yilda tug'ilgan qizlar o'rtaqidagi bahslarda Lola Jo'rayeva arg'amchi yordamida va predmetsiz mashq bajarishda eng yuqori natija ko'rsatib, ikkita oltin medalga sazovor bo'ldi.

O'z yosh toifasida Ilona Ten bitta oltin va ikkita bronza, Madina Rustamova bittadan oltin va bronza, Malika To'raxo'jayeva bitta oltin, So'g'diyona Jo'rayeva ikkita kumush va Amina Zokirova ikkita bronza medalni qo'lga kiritdi.

Mamlakatimizda qizlarni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, iste'dod va salohiyatini yuzaga chiqarish borasida amalga oshirilayotgan ishlar o'zining yuksak samaralarini berayotir.

Shavkat KAZAKBAYEV

«YASHIL CHIROQ - 2016» - NAVOIYDA

(Davomi. Boshi 1-betda)

Ishtirokchilar musobaqa Nizomiga ko'ra «Piyodalar harakati», «Harakatni tartibga solish, YTHda jarohtlanganlarga birinchi tez tibbiy yordam ko'rsatish», «Yosh velosipedchi», «YHQdan nazorat imtihon», «Maket yasash», «Radio to'lqinlari orqali boshqariladigan transportlar harakati», «Targ'ibot guruhlarining chiqishi» kabi 10 ta tur bo'yicha o'zaro bellashdilar.

Yakuniy natijalarga ko'ra, mezbon jamoa Karmana tumanidagi 9-umumta'lim maktabining «Yosh avtonazoratchi» jamoasi oliy o'ringa sazovor bo'ldi. 1-o'rin xorazmlik o'quvchilar, 2- va 3-o'rinlar esa

Toshkent shahar va Qashqadaryo viloyati jamoalariga nasib etdi.

Yuqori saviyada o'tgan musobaqa yakunida tashkilotchilar tomonidan ishtirokchilarga diplom va esdalik sovg'alari topshirildi.

2017-yil Respublika «Yashil chiroq» musobaqalari ko'hna va hamisha navqiron Buxoro viloyatida o'tkaziladigan bo'ldi.

Tohir MULLABOYEV, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist



ENG ZO'R SPORTCHI

Bugungi kunda sport bilan muntazam shug'ullanib kelayotgan umidli sportchilarimizdan biri Saidaziz Samadovdir.

Endigina maktabning boshlang'ich sinfini tugatgan iqtidor egasi poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 313-umumta'lim maktabi o'quvchisi. U to'rt yildirki, tumandagi 1-BO'SMda Ilhom Karimov va Farhod Ahmedov murabbiyligida karate bilan shug'ullanib kelmoqda. Ko'k belbog' sohibi joriy yilning o'zidayoq ko'plab g'alabalarga erishdi. Aprel oyida Navoiy shahrida bo'lib o'tgan ochiq chempionatda 3-o'rinni egallagan bo'lsa, shu oyning o'zida Toshkent shahridagi «Bilol» karate sport klubi ochiq birinchiligida 30-35 kg vaznda 2-o'rinni zabt etdi. Saidaziz o'tgan oyda bo'lib o'tgan sport maktabi test sinovlarida eng yuqori ball to'plab, tengdoshlari orasida «Eng zo'r sportchi» degan nomga sazovor bo'ldi.

Biz Saidazizni hamisha eng zo'r sportchi bo'lib qolishiga ishonamiz.

Shukrulla G'ULOM

Azizbek Siddiqov Andijon shahridagi 43-maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchisi. Bu yil yetti yoshni qarshilayotgan bolakay bog'chada tashkil etilgan karate to'garagining faol a'zosi. Jajji sportchi bir qancha musobaqalarda g'olib bo'lishga ham ulgurdi.

MUNOSIB SHOGIRD

Joriy yilda Toshkent milliy karate federatsiyasi tomonidan Chirchiq shahrida o'tkazilgan bellashuvda 3-o'rinni egalladi. Andijonda bo'lib o'tgan o'smirlar va kattalar o'rtaqidagi viloyat birinchiligida tengdoshlari ichida 1-o'rin sohibi bo'ldi. Ustozi Aqida Asqarova shunday shogirdi borligidan faxrlanadi.

– Azizbek tirishqoq va izlanuvchan tarbiyalanuvchilarimizdan biridir. U har sohada faol. Yaqinda poytaxtda bo'lib o'tgan «Nazm va navo» yoshlar festivalida rubob yo'nalishi bo'yicha 1-darajali diplom bilan taqdirlandi. San'at va sportni birday olib borayotgan Azizbek kelajakda yanada ko'p yutuqlarni qo'lga kiritishiga ishonamiz, – deydi bog'cha mudirasi Matluba Miralimova.

Muhammadsodiq ALIMOV



Shaken **KUMISBAYEV**,
qozoq adibi

TOPISHMOQLAR

Kun bo'yi izingizdan yuradi,
Quyosh botgach, u ham
g'oyib bo'ladi.

Onasi tokchadan tushsa,
Bolalari yugurib keladi.



Bayroqchaman, bayroqcha,
Rangim yam-yashil.
Kuzga qadar hilpiray,
Shamol, shafqat qil!



Sitora **ABDURAHMONOVA**,
Qashqadaryo viloyati, Qamashi tumanidagi
63-umumta'lim maktabi o'quvchisi

Quvnoq kapalaklar

Asadbek
ABDUMANOPOV,
O'rta Chirchiq
tumanidagi
5-umumta'lim
maktabining 2-sinf
o'quvchisi



YOZGI Ta'til



Yozgi ta'til zo'r bo'lar,
Nurga to'lar ko'chalari.
O'ynab-kulib bolalar,
Oromgohga yo'l olar.

Yozda tog' bo'lar gavjum,
Bag'in ochar biz uchun.
Qirga chiqib ketamiz,
Do'star bilan biz bugun.



Behzodjon **HAMIDULLAYEV**,
poytaxtimizdagi 219-umumta'lim
maktabi o'quvchisi



SINOV (Hikoya)

«Do'st adolatli bo'lishi kerak», derdi otam. To'g'ri aytgan ekan. Hammasiga o'zim aybdorman. O'sha kuni Nur futbol o'ynash uchun keldi. Qo'shni mahalla bolalari bilan bellashmoqchi edik.

– Yebekxon qayerda? – so'radim undan.
– Birozdan so'ng keladi, – dedi u.
– Nega?
– Otasi unga o'tin yordiryapti.
– Shuyam ish bo'пти-yu! – dedim men.
Nur menga hayron bo'lib qaradi.
– To'g'risini aytсам, u hujumchiman, deb keriladi. Xuddi boshqalar gol urolmaydiganday, – dedim qizishib.

– Yebekxon unday emas, – dedi Nur. – U juda chaqon, yaxshi o'yinchi.

Bu gapga kulib yubordim. Shu payt halloslagancha kelayotgan Yebekxon ko'rindi.

– Sen bekinib ol. Hozir u seni menga yomonlaydi, – dedim ishonch bilan.

Hayron bo'lgan Nur eshik orqasiga o'tib turdi.

– Bugun ularni yengamiz! – dedi Yebekxon kela-sola.

– Nur kechikiyapti, – dedim.

– Boyagina oldingga ketgandi-ku, – dedi u ko'zlarini pirpiratib.

– E-e, esladim. U boya Yebekxon hujumchi bo'lsa, men o'ynamayman, degandi-ya...

Yebekxon menga ishonqiramay qaradi.

– Nur unday qilmaydi. Agar u hujumda o'ynagisi kelsa, men himoyadayam turaveraman. U yaxshi o'ynaydi.

– Yaxshi o'ynagani bilan u juda maqtanchoq, – dedim men.

Yebekxon gapimni ma'qullamay:

– Sen o'zing yaxshi o'ynamaysan, – dedi labini burib.

– Nega yonini olaverasan? Ikkalangiz doim kelishmay qolardingiz-ku.


– O'yin paytida har xil gaplar bo'laveradi. Lekin biz do'stmiz.

Uning gapini eshitgan Nur chidolmay, chiqib keldi. Ikki o'rtoq quchoqlashib ko'rishdi. Nur bilan Yebekxonning do'stligini sinayman, deb ular dan ajralib qolayozganimni angladim.

Shahnoza **KARIMOVA** tarjimasi

BO'SH O'TIRMA, BOSH QOTIR!

Chizmadagi aylanalarga «Qo'rg'on» so'zi bilan boshlanuvchi, kataklarga esa «Qo'rg'on» so'zi bilan tugallanadigan yurtimizdagi maskanlar nomini to'liq yozish bilan topshiriqni bajaring.



Tuzuvchi: Foziljon **ORIPOV**

Pazanda qizga!



U bolajonlar va kattalar uchun juda foydali bo'lib, ortiqcha vazn yig'masligi, turli vitaminlarga boyligi bilan ahamiyatlidir.

Marhamat, salatimiz uchun kerakli bo'lgan mahsulotlar bilan tanishing:

200 gr perlovka, 4-5 dona tuzlangan bodring, 2-3 dona suvda pishirilgan tuxum, 200 gr kolbasa, salat bargi, ta'bg'a ko'ra tuz va mayonez kerak bo'ladi.

BU SALATNI HAM TATIB KO'RING

Aziz dugonajonlar! Bugun sizlarga inson organizmi uchun kerakli bo'lgan mahsulotlardan biri «perlovka» dan tayyorlanadigan salatni o'rgatmoqchimiz.

Tayyorlanishi: perlovka suvda yumshoq qilib qaynatilib, barcha masalliqalar to'rtburchak shaklida to'g'raladi. So'ngra aralashtirilib, mayonez qo'shiladi. Salat bargini ham to'g'rab, yaxshilab qorishiriladi.

Aziz bekajonlar, salatingiz yanada yoqimli va xushta'm chiqishi uchun limon suvidan tomizilsa, ishtahangiz ochiladi tez hazm bo'ladi.

Yoqimli ishtahal

NARGIZA tayyorladi

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati
Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga
qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondi.

Bosh muharrir
Feruz **ADILOVA**

Gazeta O'zbekiston Matbuot
va axborot agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil
2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Omonulla **YUNUSOV**,
Dilshod **KENJAYEV**,
Svetlana **INOMOVA**,
Bahodir **G'ANIYEV**,
Murtazo **SULTONOV**,
Vahobjon **RAJAPOV**,
Zikrilla **TESHABOYEV**,
Feruz **JALILOVA**,
Feruz **MATYOQUBOV**
(mas'ul kotib)

Navbatchi
muharrir
Shavkat
KAZAKBAYEV
Rassom
Feruzbek
KAMOL o'g'li
Sahifalovchi-
dizayner
Shaxobiddin
MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMIU bosma
xonasida chop etildi.
Manzili: Manzilimiz va bosmaxona
manzili:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100011.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz
Adadi – 27721
Buyurtma – S 6450

Tahririyatga kelgan barcha
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,
mualliflarga qaytarilmaydi.
Shakl A-3, 2 bosma taboq.
Bahosi kelishilgan narxda.
Gazeta haftaning dushanba
kuni chop etiladi.
Topshirish vaqti - 18:00
Topshirildi - 18:00
Tel./faks:
(99871) 244-63-08